

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA
NUTQ O'STIRISHNING AHAMIYATI

Mamasoatova Matluba Nurmamat qizi

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani

32- sonli DMTT direktori

Annotatsiya: maktabgacha yoshlardagi bolalar o'sish jarayonida nutq rivojlanishi alohida ahmiyatga ega. Nutq, bolaning fikrlash qobiliyatini, ijtimoiy munosabatlarini va o'z-o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Shuningdek, nutq rivojlanishi bolaning psixologik va emotsiyal rivojlanishida ham muhim ahmiyatga ega. U orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini boshqarishni, boshqalar bilan muloqot qilishni va ijtimoiy qobiliyatlarni o'rGANADILAR.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, nutq rivojlanishi, ijtimoiy aloqalar, psixologik rivojlanish, ta'lif jarayoni, ijtimoiy qobiliyatlar, psixologik rivojlanish fikrlash qobiliyat, muloqot.

Аннотация: развитие речи имеет особое значение в процессе роста детей дошкольного возраста. Речь расширяет способности ребенка к мышлению, социальным связям и самовыражению. Также развитие речи имеет важное значение в психологическом и эмоциональном развитии ребенка. Благодаря этому дети учатся управлять своими эмоциями, общаться с другими людьми и приобретать социальные навыки.

Ключевые слова: дошкольный возраст, речевое развитие, социальные отношения, психологическое развитие, образовательный процесс, социальные навыки, психологическое развитие, мыслительные способности, общение.

Abstract: speech development is of particular importance in the growth process of preschool children. Speech enhances the child's ability to think, social relations and self-expression. Also, the development of speech is important in the psychological and emotional development of the child. Through it, children learn to manage their emotions, communicate with others and social skills.

Key words: preschool age, speech development, social relations, psychological development, educational process, social skills, psychological development, thinking ability, communication.

Maktabgcha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirishda oldindan tayyorlangan mavzularda suhbatlar, teatrlashtirish usullari, sahnalashtirish o'yinlari, savol-javoblar juda foyda beradi. Ta'kidlash joizki, bola uchun katta yoshli odam savollarga javob topishning yagona vositasi, qiziqarli taassurotlar manbai hisoblanadi. Bola kattalar bilan dialogga kirishishga, narsalar va o'yinchoqlarga egalik qilishga intilarkan, u ushbu maqsadlarga erishish uchun so'zdan foydalanishga ehtiyoj sezadi, ba'zida o'zi tashabbus

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

ko'rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishish jarayonida bolaning bir so'zli fikrlarini grammatik jihatdan to'liq shakllantirilgan so'zlarga aylantirish orqali uning kamchiliklarini tuzatadi. Bola o'rganganlarini faol o'zlashtiradi va undan o'z nutqida foydalanadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqini rivojlantirishda uning ota-onasi, aka-opalari va tarbiyachilarining hissasi katta. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning nutqini o'stirishda oldindan tayyorlangan mavzularda suhbatlar, teatrlashtirish usullari, sahnalashtirish o'yinlari, savol-javoblar juda foyda beradi. Ta'kidlash joizki, bola uchun katta yoshli odam savollarga javob topishning yagona vositasi, qiziqarli taassurotlar manbai hisoblanadi. Bola kattalar bilan dialogga kirishishga, narsalar va o'yinchoqlarga egalik qilishga intilarkan, u ushbu maqsadlarga erishish uchun so'zdan foydalanishga ehtiyoj sezadi, ba'zida o'zi tashabbus ko'rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishish jarayonida bolaning bir so'zli fikrlarini grammatik jihatdan to'liq shakllantirilgan so'zlarga aylantirish orqali uning kamchiliklarini tuzatadi. Bola o'rganganlarini faol o'zlashtiradi va undan o'z nutqida foydalanadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqini rivojlantirishda uning ota-onasi, aka-opalari va tarbiyachilarining hissasi katta. Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof obyektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o'simliklar olami, suv osti dunyosi) to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira borish talab etiladi. Nutqni rivojlantirishning samaradorligini oshirish rejasida nafaqat tevarak-atrof obyektlari ustida oddiy mushohadalar uchun, balki ularni o'rganish uchun ham sayrlar, sayohatlar o'tkazish muhimdir. Shu o'rinda tevarak-atrof obyektlarini o'rganishda nimalarga erishish mumkinligini aniqlab olishimiz lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, nutq o'stirishga oid tevarak-atrof manbalarining o'zini guruhlashtirish taqozo etiladi. Tevarak-atrofni o'rganishda bolalar shunchaki kuzatmasliklari, balki predmetlarni ularning qismlarini, elementlarini ko'rib, jarayonlar va hodisalarни idrok eta borib, ular to'g'risida mulohaza yuritishlari ham muhimdir. Bunga erishish uchun tarbiyachi pedagog zimmasiga qiyoslash, taqqoslash, ajratish, umumlashtirish, tahlil qilish va boshqa shu kabi usullardan foydalanish vazifasi yuklatiladi. Bundan tashqari, o'rganish jarayonida maktabgacha katta yoshdagagi bolalarni mehnatning ular uchun qulay bo'lgan turlari, masalan; ariqchalarni tozalash, daraxtlar tagini yumshatish, gullarni parvarish qilishga jalb qilish muhimdir. Bunday yondashuv shu bilan bog'liqki, inson biron narsani o'z qo'li bilan bajarsa, uni ko'proq va to'laroq esda saqlaydi. Mazkur usul bilan maktabgacha katta yoshdagagi bolalarning bog'lanishli nutqidagi kamchiliklar narsapredmetlarning nomlarini so'zma-so'z va eslashedi orqali to'ldiriladi. Maktabgacha katta yoshdagagi bolalar nutqini rivojlantirish ko'p jihatdan quyidagi narsalarning to'g'ri hal etilishiga bog'liq:

- Nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar (tarbiyachi va ota-onalarning ma'lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o'qib yoki aytib beriladigan ertaklar, qo'shiqlar, hikoyalar);
- Ta'limning didaktik materiallarni o'zlashtirish uchun foydalaniladigan metod va usullari;

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

– Ta’limni tashkil etish ya’ni tevarak-atrof obyektlarini saralash, shunga bog‘liq nutq o’sirishni rejalashtirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning nutqini ostirishda, nutq madaniyatini shakllantirishda tarbiyachilar tashkil qiladigan ishlar avvalo o‘quv dasturiga asoslangan holatda olib boriladi va faoliyat mashg‘ulotlari jarayonida buyuk alloma bobokalonlarimiz fikrlari hamda asarlaridan foydalanilgan holatda tashkillashtiriladi. Maktabgacha yoshdagি bolalarning nutq malakalarini shakllantirish ishlarini olib borish davrida tarbiyachi pedagoglar Sharq va G‘arb mutafakkir, olimlarning quyidagi fikr va asrlardan foydalanishlari mumkin. Ona tilining bola ruhiy kuchlarini har tomonlama rivojlantirish, til mohiyati va uning vujudga kelishining bosh manbai ekanligi haqidagi ta’limot K.D. Ushinskiy pedagogik ta’limotida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi hamda uning metodik tizimini tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. K.D. Ushinskiy ona tilini birlamchi o‘qitishning uchta asosiy maqsadlarini shakllantirgan: so‘z imkoniyatlarini rivojlantirish. Bolaga fikrni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o‘rgatish, bolalarni ona tilining boyliklarini egallahsga jalg qilish. Til qonunlarini, uning grammatikasini o‘rganish. Maktabgacha yoshdagи bolalar nutqini rivojlantirish va ularga ona tilini o‘rgatish sohasidagi psixo-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- Nutqni rivojlantirish – bu bolaning individual rivojlanishida markaziy o‘rinni egallovchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirishiga oid o‘ta murakkab va ko‘p omilli jarayondir.

- Bu stixiyali jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni taklif qiluvchi ijodiy jarayon hisoblanadi. Bolaning nutqiy rivojlanish jarayonini boshqaruvchi pedagog ushbu jarayon qonuniylari, mexanizmlari va uning turli yosh bosqichlaridagi xususiyatlarini bilishi, nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini ko‘ra bilishi va bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uning nutqiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning eng samarali yo‘llarini tanlashi shart. Nutq rivojlanishi bolalarning muloqot qilish qobiliyatini shakllantirib, fikrlashlariga, his-tuyg‘ularini ifoda etishlariga, va ijtimoiy aloqalarini o‘rnatishtilariga yordam beradi.

- Muloqot va aloqalar: nutq, bolalar uchun o‘z fikrlarini, talab va xohishlarini ifoda etish imkoniyatini yaratadi. Bu, ularning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

- Fikr rivojlanishi: nutq o‘sishi bolalarning fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Nutq orqali bolalar savol berish, javob olish va muhokama o‘tkazishni o‘rganadilar.

- Emotsional rivojlanish: nutq, bolalarga his-tuyg‘ularini va emotsiyalarini ifoda etishda yordam beradi. Bu esa ularda o‘zligini anglash va boshqalar bilan munosabatlarni yaxshilashga olib keladi.

- Ta’lim jarayoni: nutq rivojlanishi, bolalarning o‘qish va yozish qobiliyatlariga tayyorgarlik ko‘rishlariga yordam beradi. Bu, kelgusida ta’lim olish jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

- Ijtimoiy muhitda muvaffaqiyat: maktabgacha yoshda nutq o’sirish, bolalarda o‘z-o‘zini ifoda etish va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydi, bu esa keljakda ularning muvaffaqiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

yoshdagi bolalarning rivojlanishida nutq o'stirishning ahamiyati juda katta. Boshqa sohalarda rivojlanishning asosiy omili bo'lgan nutq, bolalarga hayotlarida muhim tashabbuslar, qarorlar va munosabatlarni to'g'ri qurishda yordam beradi. Nutqni rivojlantirish bilan, bolalar o'zlarining potentsialini to'liq ochishlari uchun zaruriy poydevor bilan ta'minlanadilar.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOT:

1. Yusupova, Z., Saminov, A., & Sayramov, F. (2022). SALVIA-L MARMARAK TURKUMI VAKILLARINING O'ZBEKİSTONDA TARQALISHI, HAYOTİY SHAKLLARI VA ISHLATILISHI. Science and innovation, 1(D6), 13-19.
2. Haydarov, M., Yusupova, Z., Sayramov, F., & Rahmonova, O. (2022). LAMIACEAE OILA VAKILLARINING BIZ BILGAN VA BILMAGAN
3. DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. Science and innovation, 1(D7), 89-94.
4. Sh.A. Sodiqova "Maktabgacha pedagogika" Fan va texnologiya. T.2017-yil.
5. R.Safarova va boshqalar. Savod o'rgatish darslari.-T.:Manaviyat, 2003.

